

TUPROQNING UNIMDOR QATLAMI**Xudoberdiyev Sardorbek Umidjon o'g'li**

Agrokimyo va agrotuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-boshqich talabasi.

Tel. +998-93-858-29-27 Sardorxudoberdiyev103@gmail.com**Sultonmurodova Fariza bekmirza qizi**

Agrokimyo va agrotuproshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Tel: +998-99-641-27-17 farizasultonmirodova@gmail.com**Yusupov Xudoynazar Dilmurod o'g'li**

Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Tel. +998-88-000-15-04 yusupovx634@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15204758>

Annotatsiya. Tuproq mustaqil tabiiy jism. Yer po'stlog'i (litosfera) ning ustki unimdor qatlami bo'lib, organik dunyo (o'simliklar, mikroorganizmlarning) mineral moddalarning tabiiy muhit iqlim joyining muayyan sharoitlarida o'zaro tasirlashuvi tasirida yuzaga kelgan. Tuproq faqat o'ziga xos bo'lgan rivojlanish tarixiga, tashqi va ichki tarkibidagi hamda xossalari, o'z hayotiga ega.

Kalit so'zlar: Tuproq, yer po'stlog'i, organik dunyo, o'simliklar, mikroorganizmlar.

FERTILE LAYER OF SOIL

Abstract. Soil is an independent natural body. It is the upper fertile layer of the earth's crust (lithosphere), formed under the influence of the interaction of the organic world (plants, microorganisms) with mineral substances in certain conditions of the natural environment and climate. Soil has its own unique history of development, external and internal structure and properties, and its own life.

Keywords: Soil, earth's crust, organic world, plants, microorganisms.

ПЛОДОРодный СЛОЙ ПОЧВЫ

Аннотация. Почва — самостоятельное природное тело. Почва — самый верхний плодородный слой земной коры (литосферы), образующийся под влиянием взаимодействия органического мира (растений, микроорганизмов) и минеральных веществ в определенных условиях природной среды и климата. Почва имеет свою уникальную историю развития, внешнюю и внутреннюю структуру и свойства, свою жизнь.

Ключевые слова: Почва, земная кора, органический мир, растения, микроорганизмы.

V.V.Dokuchayev (1846-1903y) ilmiy genetik tuproqshunoslikning asoschisi hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlari dunyoning barcha mamlakatida tan olingan.

Tuproq paydo bo'lish jarayonlari haqida umumiy nazariy tushunchalar- V.V.Dokuchayev, P.P.Kostichev, N.M.Sibersev, V.R.Vilyams, P.S.Kosovich, K.D.Glinka, G.Iyenni, F.Dyushofur va boshqa mashhur olimlar ilmiy faoliyati tufayli shakllangan.

Tuproq paydo bo'lishi nihoyatda murakkab biofizik-kimyoviy jarayondir. A.A.Rodiyning ko'rsatishicha, tuproq paydo bo'lish jarayoni deb moddalar va energiyaning tuproq qatlamida o'zgarishi va harakati singari hodisalar yeg'indisiga aytiladi.

Tuproq qattiq fazasi har xil kata-kichiklikdagi o'ziga xos tarkib va xususiyatiga ega bo'lgan mexanik elementlar majmuasidan iborat. Tuproq strukturasi deb ,mazkur tip va uning qatlamiga xos har xil kattalikka, shakliga, chidamliligiga (suvga)ega bo'lgan agregatlar yeg'indisiga aytiladi. Har xil tuproq tipi uchun malum bir turdagi struktura harakterlanadi. S.A. Zaxarov tasnifi bo'yicha asosan tuproqda uch xil (kupsimon, pirizmasimon, pilitasimon) struktura farq qilinib ular bir necha turdan iborat bo'ladi.

Kalit so'zlar: Tuproq morfologiyasi, struktura, yer po'log'i , biologiyasi, klassifikatsiyasi, donadorligi, tuproq tiplari.

Tuproq morfologiyasi uning tashqi ko'rinishi izohlovchi belgilari tushiniladi.

Tuproqning morfologik belgilariga tuproqning genetik qatlamlari, tuproq qalinligi, rangi, namligi, donadorligi (strukturasi), mexanik tarkibi, qovishmasi, yangi yaralmasi va qoshilmasi kiradi. Tuproqning morfologik belgilari asosan tuproqning xosil bo'lish, rivojlanish xosalarini ifodalaydi.

Yer yuzasi tuproq qatlami, o'zining murakkab tuzilishi va xilma -xilligi bilan xarakterlanadi.

Tuproqlarni o'xshash belgilari, kelib chiqishi va unimdorligi kabi xususiyatlariga ko'ra muayyan gruppalariga birlashtirishga tuproq klassifikasiya (tasnifi) deyiladi.

Tuproq donadorligi deganda uning qattiq qismining makroagregat tuzilishi tushuniladi.

Tuproq agregatlari mayda zarrachalarning bir-biri bilan birlashishi (yopishishi) natijasida (1 mm dan 10 mm gacha) donadorlik shakllanadi.

Donadorlik makroagregatlarning kattaligi va shakliga qarab quydagilarga bo'linadi:

Mikrodonadorlik – zarrachalar diametric 0,25 mm dan kichik;

Makrodonadorlik – zarrachalar diametri 0,25 mm dan 10 mm gacha;

Megadonadorlik - zarrachalar diametri 10 mm dan katta.

Tuproq donadorligi o'zgaruvchan ko'rsatgich bo'lib, agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish, dexqonchilik madaniyatining xolati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Tuproq joylashishi (qovshmasi)-qatlamdagi g'ovaklik va zichlikning tashqi ko'rinishini ifodalaydi. Tuproq qatlami joylashishi bo'yicha juda zich, zichlangan g'ovak va sochilmali bo'ladi.

Tip deb, deyarli bir xildagi tuproq paydo bo'lish jarayonlari kechadigon hamda o'xshash fizik-geografik sharoitlarda katta maydonlarda shakllangan aniq tuproqlarga aytiladi.

Masalan chala cho'llardagi qo'ng'ir tuproqlarni rangi o'xshash bo'lgani boshqa tuproqlardan farqini ajratish uchun, qo'ng'ir o'rmon tuproqlar nomi yoki bo'z tuproqlardan aniqroq farqlash uchun o'rmoq sur tuproqlari atamaları deyiladi.

REFERENCES

1. I.Boboxo'jayev, P.Uzoqov. Tuproqning tarkibi xossalari va analizi
2. A.Ramazonov, S.Buriyev. Tuproqshunoslik va Dehqonchilik.
3. L.A.G'afurova, S.A.Abdullayev, X.K.Nomozov Meliratif tuproqshunoslik.
4. G'.Yuldashev T, Abduraxmonov, Z.Jabbarov. Tuproq kimyosi
5. E.A.Ziyomuhamedov Tuproq organik moddasi va unimdorligi